

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

TEXNIKA FAKULTETI

KIMYO KAFEDRASI

5140500 – “Kimyo” ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavr darajasini olish uchun

Buriyeva Madina Shokir qizining

**« Rux (II)ning ba`zi kislota amidlari bilan kompleks
birikmasining sintezi va tadqiqoti» MAVZUSIDAGI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI



ILMIY RAHBAR:

Dots. G.J.Muqimova

TERMIZ- 2017

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
TEXNIKA FAKULTETI**

KIMYO KAFEDRASI

**« Rux (II)ning ba`zi kislota amidlari bilan kompleks
birikmasining sintezi va tadqiqoti » MAVZUSIDAGI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: 5140500 – kimyo ta’lim yo‘nalishi bitiruvchisi
Buriyeva Madina Shokir qizi

Ilmiy rahbar: Dots. G.J.Muqimova.

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o‘tdi.
_____ sonli bayonnoma “_____” _____ 2017 yil.

Kafedra mudiri _____ dots.Aliqulov R.V.

Termiz - 2017

Mundarija

Kirish.....	4
I. Adabiyotlar tahlili.....	7
I.1. Ruxning tabiatda uchrashi, olinishi va uning birikmalarining fizik-kimyoviy xossalari.....	7
I.2. Ruxning kompleks birikmalari.....	16
I.3. Nikotinamid uning olinishi va birikmalarining xossalari.....	
I.4. Monometilolkarbamid va uning birikmalarining olinishi,fizik-kimyoviy xossalari.....	
II. Tanlangan obekt va tadqiqot usuli.....	
II.1. Reaktivlar, asboblari va tadqiqot usullari.....	
II.2. Rux (II) ning nikotinamid bilan koordinatsion birikmasining sintezi....	
II.3. Rux (II) ning Monometilolkarbamid bilan koordinatsion birikmasining sintezi.....	
III. Olingan natijalar tahlili.....	
III.1. Sintez qilingan koordinatsion birikmalarning kimyoviy analizi.....	
III.2. IQ-spektri natijalari tahlili.....	
III.3. Termik analizi tahlili.....	
IV. Glossariy.....	
V. Xulosa.....	
Foydalanilgan adabiyotlar.....	

KIRISH

Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodiyoti bilangina emas, balki, bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qilishi lozim. Kelajakdagi buyuk davlat eng birinchi navbatda bo'lajak fuqarolarning madaniyati, ma'lumoti va ma'naviyati haqida g'amxo'rlik qilmog'i zarur.

Respublikamizda olib borilayotgan islohatlarning amalga oshishida yuqori malakali mutaxassislarining o'rni benihoyat kattadir. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: „Ertangi kun yangicha fikrlay oladigan, zamonaviy bilimga ega bo'lgan yuksak malakali mutaxassislarini talab etadi“. Shu sababli xalqimiznin boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyotlari, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalar asosida yetuk mutaxassislar tayyorlash tizimi ishlab chiqildi va jadal sur'atlar bilan hayotga tadbqiq etilmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2016-yilning 29-dekabrida qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademiklari faoliyatini takomillashtirish va rag'batlantirish» to'g'risidagi PF-4907-sonli farmonida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ilm-fanning o'rnini yanada mustahkamlash, akademiklar faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlash sifatini oshirishni rag'batlantirish maqsadida bir qator muhim chora-tadbirlar belgilangan.

Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellectual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.

[1, 2,4]

Mavzuning dolzarbligi: Respublikamizda kimyo sohasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri yangi kimyoviy birikmalar sintez qilish va ularning ishlatilish sohalarini kengaytirish hamda xossalarini o'rganishdir. Shu jihatdan tarkibida kislorod, azot kabi donor atomlari tutgan ligandlar bilan ayrim 3d- metallarning koordinatsion birikmasini sintez qilish, ularning tarkibi, tuzilishi va xossalarini o'rganish va ishlatilish

sohalarini izlash hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Shu jihatdan nikotinamid va ikki asosli karbon kislotalar tarkibida kislorod, azot atomlari tutadi. Amid guruhi tabiiy biologik faol birikmalar tarkibining asosiy struktura komponenti hisoblanadi. Shu sababli bu guruhning tuzilishi va xossalari haqida tasavvurga ega bo'lmagan biologik ahamiyatga ega bo'lgan birikmalardagi molekulyar reaksiyalar mexanizmi haqida tushunchaga ega bo'lish mumkin emas.

Ikki valentli rux(II) ionlari ham kompleks birikmalar hosil qilishga mo'ldir. Rux (II) ning har xil ligandlar bilan kompleks hosil qilishi ligandlarning tabiatiga bog'liq bo'ladi. Hozirgi kunda Rux(II) ning turli anorganik va organik ligandlar bilan hosil qilgan kompleks birikmalari o'rganilgan va xalq xo'jaligining turli sohalarida qo'llanilmoqda. Lekin, Rux(II) ning kislota amidlari va qahrabo kislotalari bilan hosil qilgan koordinatsion birikmalari kam o'rganilgan. Shuning uchun ham Rux(II) ionining kislota amidlari va qahrabo kislotalari bilan hosil qilgan koordinatsion birikmasini sintez qilish, ularning xossalari o'rganish va bu birikmalarning xalq xo'jaligidagi ahamiyatini bilish kompleks birikmalar kimyosining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. [8-10]

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari:

— Rux (II) ning kislota amidi bilan ya'ni nikotinamid bilan koordinatsion birikmasini sintez qilish va sintez sharoitini o'rganish.

— Sintez qilingan koordinatsion birikmaning tarkibini, tuzilishini va individualligini element analizi, rentgenfazaviy, IQ-yutilish, spektroskopik analiz va derivatorlik analizlarda o'rganib isbot qilish.

— Koordinatsion birikma hosil bo'lishida markaziy ion va organik ligandning xossalari o'rganish.

— Organik ligandning markaziy atom bilan koordinatsiyalanish

qobiliyatini aniqlash.

— Koordinatsion birikmaning derivatografik usulda termik holatlarini o'rganish va oxirgi mahsulot tarkibini aniqlash hamda koordinatsion birikmaga tarkib berishdan iborat.

— Karboksil guruhining o'zi metalning va koordinatsion birikmaning tabiatiga qarab, koordinatsiyalanish usullarini va metall ioniga bog'lanishda suv molekulası bilan raqobatlashishini o'rganish.

Tadqiqot obyekti: Rux(II) ning tuzlari, nikotinamid, natriy gidroksid, qahrabo kislotasi, monometilolkarbamid

Tadqiqot predmeti: Rux(II) ning kislota amidlari bilan va hosil qilgan koordinatsion birikmalari.

Ishning ilmiy va amaliy ahamiyati: Rux tabiatda ko'pincha birikma holida uchraydi. Ma'lumki, metall tabiatiga bog'liq ravishda karboksilat guruhi monoligand sifatida qanday ishtirok etsa, bidentant ligand sifatida ham xuddi shunday ishtirok etadi. Biz ko'pgina savollarni echish uchun kompleks hosil qiluvchi sifatida Rux(II) ning tuzlarini oldik, chunki bu moddalardagi metall atomi elektron bulutlari tuzilishining o'zgarishiga qarab, kompleks hosil qilish haqida fikr yuritamiz. Tajribadan olingan natijalardan ilmiy izlanuvchilar, magistrlar, bakalavrlar o'zlarining ilmiy ishlarida ma'lumot sifatida foydalanishlari mumkin.

Ilmiy yangiligi: Rux(II) ning nikotinamid va qahrabo kislotasi bilan koordinatsion birikmasi sintez qilindi va sintez sharoiti o'rganildi.

Hosil bo'lgan birikmalarning tarkibi, tuzilishi, fizik-kimyoviy xossalari o'rganildi va tuzilish formulalari aniqlandi.

Nikotinamid va qahrabo kislotasining markaziy atom bilan koordinatsiyalanish qobiliyatini IQ-spektr natijalari asosida o'rganildi.

Sintez qilingan koordinatsion birikmalarning derivatografik usulda termik holatlari o'rganildi va oxirgi mahsulot tarkibi aniqlandi. Element

analiz, termik analizdan olingan natijalar asosida koordinatsion birikmaga tarkib berildi.

I. Adabiyotlar tahlili

I.1. Ruxning tabiatda uchrashi, olinishi va uning birikmalarining fizik-kimyoviy xossalari.

Rux - Mendeleyevning kimyoviy elementlar davriy jadvalining IV-davr, ikkinchi guruhchasida joylashgan kimyoviy element. Atom raqami 30. **Zn** (lotincha *Zincum*) formulasi bilan belgilanadi. Oddiy modda sifatidagi rux, me'yoriy sharoitlarda ko'kish-oq rangdagi mo'rt metall bo'lib, havo ta'sirida xiralashadi (chunki uning sirti yupqa rux oksid qatlami bilan qoplanadi).

Ruxning mis bilan qotishmasi qadimgi Yunoniston, qadimgi Misr, qadimgi Hindiston (VII asr), hamda Xitoyda (XI asr) ma'lum bo'lgan. Biroq uzoq asrlar davomida ruxni sof holatda ajratib olishni hech kim bilmagan. Faqatgina 1738 yilga kelibgina Angliyalik Uilyam Chempion ismli mutaxassis ruxni distillyatsiya usulida ajratib olish yo'lini topdi. Ruxni sanoat miqyosida ishlab chiqarish ham o'sha yillarda yo'lga qo'yilgan. Uilyam Chempionning o'zi 1743 -yilda Bristol shahrida birinchi rux zavodini ishga tushirgan. 1746 -yilda Germaniyada ham Andreas Marggraf tomonidan Chempionnikiga o'xshash usulda rux olish yo'li kashf qilindi. Chempiondan farqli ravishda Marggraf o'zi ixtiro qilgan rux olish usulini barcha tafsilotlari bilan bayon qilib nashr ettirgan. Shu sababli ham ruxni aynan Marggraf kashf qilgan degan yanglish tushuncha shakllanib qolgan.

Ruxning xalqaro nomlanishi – Zinc tarzida qo'llanishi ilk pora Teofast Paratsels (1493-1541) qalamiga mansub «Liber Mineralum II» kitobida uchraydi. Taxminlarga ko'ra bu atama kelib chiqishiga ko'ra nemischa «*zinken*», ya'ni, «tishcha» (tishli g'ildirakdagi kabi), «dandana» ma'nosiga borib taqalsa kerak.

Tabiatda ruxning 66 xil minerali aniqlangan. Ulardan eng keng tarqalganlari sfalerit (ZnS), villemit ($\text{Zn}_2[\text{SiO}_3]$), kalamini ($\text{Zn}_4[\text{Si}_2\text{O}_7] (\text{OH})_2 \times \text{H}_2\text{O}$), uni shuningdek gemimorfit deb ham atashadi, smitsonit (ZnCO_3), franklit (ZnFe_2O_4) kabilardir. Rux minerallari ichida eng yaxshi o'rganilgani sfalerit, ya'ni, aldamchi rux mineralidir. Uning asosiy komponenti rux sulfidi ZnS bo'lib, unga turli

aralashmalar qo‘shilishi bilan, mineralning rangi tovlanib, o‘zgarib boradi. Ushbu mineralni aynan o‘zi ekanini aniq bilishning mushkulligidan kimyogarlar unga «aldamchi» deb nom berishgan. Aldamchi rux minerali boshqa rux minerallarini hosil qiladigan boshlang‘ich mineral sanaladi.

Yer qobig‘idagi ruxning o‘rtacha miqdori $8.3 \cdot 10^{-3}\%$ ni tashkil qiladi. Vulqonlardan qolgan cho‘kindilaridan iborat yerlarda rux miqdori ko‘proq ($1.3 \cdot 10^{-2}\%$ gacha); va aksincha sho‘r tuproqli yerlarda kamroq ($6 \cdot 10^{-3}\%$ atrofida) bo‘lishi aniqlangan. Rux suvlarda ko‘chib yuradigan element bo‘lib, shu sababli uni «suv muhojiri» deb ham atashadi. Rux ayniqsa termal suvlarda, qo‘rg‘oshin bilan birgalikda ko‘chib yuradi. Bunday suvlar oqadigan akvatoriyalarda odatda sanoat ahamiyatiga ega bo‘lgan yirik rux sulfid cho‘kindilari hosil bo‘ladi. Rux shuningdek yerosti suvlarida ham ko‘p miqdorda ko‘chib yuradi va cho‘kindi hosil qiladi. Yer osti suvlaridagi ruxning cho‘kishiga asosiy sabab bo‘luvchi modda serovodorod hisoblanadi.

Rux – muhim biogen elementlardan biridir. Tirik organizmlarda o‘rtacha $5 \cdot 10^{-40}\%$ rux moddasi mavjud bo‘ladi.[8]

Asosiy konlari. Jahon bo‘yicha ruxning eng katta konlari Avstraliya, Eron, Boliviya va Qozog‘iston hududlarida aniqlangan. Rux ishlab chiqarish bo‘yicha hozirda Xitoy birinchi o‘rinni egallab kelmoqda. Jahon rux ishlab chiqarish ko‘rsatkichining taxminan 26% qismi Xitoy ulushiga to‘g‘ri keladi. Undan tashqari, Avstraliya, Peru va AQSH davlatlari ham bu borada yetakchilar sanalishadi (ularning umumiy ulushi 25% atrofida).


Olinishi. Rux tabiatda alohida holda uchramaydi. Uni 1-4% rux sulfid tutadigan polimetall rudalardan qazib olinadi. Rudani selektiv flotatsiyalash yo‘li bilan tarkibida 40-60% rux tutgan rux konsentratlari olinadi (bu jarayonda rudadagi yondosh metallar – qo‘rg‘oshin, mis va hokazolarning ham konsentratsiyasi hosil bo‘ladi). Hosil bo‘lgan rux konsentratni pechda qaynayotgan tuzda kuydiriladi. Natijada rux oksidi (ZnO) olinadi. Jarayonda rux sulfid

tarkibidagi oltingugurtdan hosil bo'lgan oltingugurt gazi SO₂ oltingugurt kislotasi tayyorlash uchun yo'naltiriladi.


Ruxni sanoatda asosan ikki xil usulda olinadi. birinchisi pirometallurgik usul bo'lib, bunda kuydirilgan rux konsentratni 1200-1300 °C haroratda koks yoki, ko'mir vositasida tiklanadi. Lekin bu usulda olingan rux tarkibida 3% atrofida aralashmalar (asosan kadmiy) mavjud bo'lishi mumkin. Bunday ruxni yana qo'shimcha ishlov berish orqali, sof rux (99.95% rux) holatiga keltirish mumkin. Bu esa ishlab chiqarilayotgan ruxning tannarxi qimmatroq bo'lishiga sabab bo'ladi.

Hozirda jahon miqyosida keng tarqalgan rux olish usuli bu – elektrolitik (gidrometallurgik) qayta ishlash usulidir. Bunda kuydirilgan rux konsentratiga oltingugurt kislotasi bilan ishlov beriladi va qo'rg'oshin yoki viniplast vannalarda elektroliz qilinadi. Bu jarayonda rux elektroliz vannadagi alyuminiy katodda to'planadi. Yig'ilib qolgan ruxni ajratib olinadi va induksion pechda eritib, quyma holiga keltiriladi. Bu usul bilan olingan rux tarkibining sofliги (ruxning umumiy miqdori) 99.95 % ni tashkil qiladi. Konsentratdagi ruxning ajratib olish samaradorligi ham elektrolitik usulda ancha yuqori, ya'ni, 93-94 % bo'ladi. Konsentratda qolgan qoldiq ruxdan esa rux kuporosi olish uchun foydalaniladi.

Rux rudasi flotatsiya usuli bilan boyitilib, konsentrat hosil qilinadi. Hosil bo'lgan rux konsentratini yondirib rux oksid olinadi:




Rux oksidini uglerod bilan qaytarib rux hosil qilinadi:





Gidrometallurgiya usuli bilan rux olishda kuydirilgan rux rudasi sulfat kislotada eritiladi. Natijada hosil bo'lgan ZnSO₄ eritmasini elektroliz qilib, rux ajratib olinadi.

Kadmiy texnikada rux bilan birga olinadi. Tarkibida kadmiy bo'lgan ruda sulfat kislotada eritiladi. Hosil bo'lgan CdSO₄ ni rux bilan qaytarib yoki uni elektroliz qilib kadmiy ajratib olinadi. Simob texnikada pirometallurgiya usulda


HgS dan olinadi. Buning uchun simob rudasi kislorod ta'sirida kuydiriladi. Natijada hosil bo'lgan HgS termik beqaror bo'lgani uchun, u erkin simobga parchalanib ketadi:






Bug' holida hosil bo'lgan simob ma'sus idishga yig'ilib, keyin haydash yo'li bilan tozalanadi. simobni olishda ba'zan HgSga temir yoki kaltsiy oksid ta'sir ettirish reaksiyasidan foydalanish mumkin:




Xossalari. Rux kumush rang oq metall, odatdagi sharoitda mo'rt, havo va suv ta'siriga chidamli. Qizdirilganda rux suvni parchalaydi. Eritmada vodorod ionlarining ortishi bilan ruxning sirtidagi oksid parda emiriladi, natijada uning kimyoviy reaksiyaga kirishishi aktivlashadi. Hatto ammoniy xlorid tuzining gidrolizi natijasida hosil bo'lgan vodorod ionlari ruxning erish prosessini tezlatadi:



Rux amfoter metall bo'lgani uchun kislotalar va ishqorlar bilan reaksiyaga kirishadi:



Rux nitrat va konsentrlangan sulfat kislotalar bilan juda aktiv reaksiyaga kirishadi. Rux juda suyultirilgan nitrat kislotani ammoniy ioniga qaytaradi:




Kadmiy oq rangli yaltiroq, yumshoq metall. Kadmiy oq rangli yaltiroq, yumshoq metall. Kadmiy havoda oksidlanganda uning sirti oksid parda bilan qoplanadi. Kadmiy yuqori temperaturada juda ~~aktiv~~ metall, kislotalarda yaxshi eriydi, ishqorlarda erimaydi. Chunki $\text{H}_2\text{O} + 2\text{OH}^- \xrightarrow{2e^-} 2\text{H}_2\text{O}$ sistemaning standart oksidlanish potentsizli $\text{Cd} + 2\text{OH}^- \xrightarrow{2e^-} \text{Cd}(\text{OH})_2$ sistemaning standart



oksidlanish potensialidan katta. Shunga asoslanib vodorod kadmiyga nisbatan kuchli qaytaruvchidir. Shuning uchun kadmiy ishqoriy muhitda H^+ ionini erkin vodorodgacha qaytara olmaydi. Yuqori temperaturada kadmiy aktiv metall, galogenlar bilan birikib galogenidlar hosil qiladi.[9]

Fizik xossalari. Sof holdagi rux, ancha egiluvchan, oqish-kumushsimon rangli metall. Kristall panjarasi geksagonal shaklda bo'ladi. Xona haroratida ancha mo'rt holda bo'ladi. Egilganda kristalllarining ishqalanishidan chiqadigan qirsillagan tovush eshitiladi. 100-150 °C haroratlarda rux juda egiluvchan bo'lib qoladi. Juda oz miqdorli aralashmalar ham ruxning mo'rtligini keskin oshirib yuboradi.

Kimyoviy xossalari. Rux – amfoter birikmalar hosil qila oladigan odatiy metallardan biridir. ZnO va $Zn(OH)_2$ ruxning amfoter birikmalari sanaladi. Standart elektrolitik potentsiali -76 V bo'lib, standart potentsiallar qatorida temirdan avval joylashgan. Kuchli qizdirilganda amfoter oq oksid ZnO hosil qilish bilan yonadi. Havoda rux yupqa oksid qatlami bilan qoplanib qoladi:



Rux oksidi amfoterligi uchun kislotalar bilan ham va ishqor bilan ham reaksiyaga kirisha oladi:




Qizdirilganda rux galogenlar bilan reaksiyaga kirishib, galogenidlar hosil qiladi $ZnHal_2$. Rux fosfor bilan birgalikda fosfidlar (Zn_3P_2 va ZnP_2); oltingugurt, tellur, selenlar bilan esa xalkogenidlar (ZnS , $ZnSe$, $ZnSe_2$ va $ZnTe$) hosil qiladi.




Vodorod, azot, uglerod, kremniy va bor elementlari bilan rux bevosita reaksiyaga kirishmaydi. Rux nitrid (Zn_3N_2) rux va ammiakning 550-600 °C haroratdagi reaksiyasi orqali olinadi.

Rux kumush rang oq metall, odatdagi sharoitda mo'rt, havo va suv ta'siriga chidamli. Qizdirilganda rux suvni parchalaydi. Eritmada vodorod ionlarining ortishi bilan ruxning sirtidagi oksid parda emiriladi, natijada uning kimyoviy


reaksiyaga kirishishi aktivlashadi. Hatto ammoniy xlorid tuzining gidrolizi natijasida hosil bo'lgan vodorod ionlari ruxning erish prosessini tezlatadi:



Rux amfoter metall bo'lgani uchun kislotalar va ishqorlar bilan reaksiyaga kirishadi:



Rux nitrat va konsentrlangan sulfat kislotalar bilan juda aktiv reaksiyaga kirishadi. Rux juda suyultirilgan nitrat kislotani ammoniy ioniga qaytaradi:



Qo'llanilishi. Toza ruxdan nodir metallarni tiklash uchun foydalaniladi. Shuningdek, rux keyinchalik affina j yo'li bilan qayta ishlanadigan kumush va oltinni intermetallidlardan ajratib olishda ishlatiladi. Undan po'lat konstruksiyalar, quvurlar va ho kazolarni rux qoplamasi bilan qoplashda juda keng foydalaniladi. Bunda rux po'latni yemirilish, zanglashdan saqlaydi.

Rux eng keng qo'llanadigan soha bu – tok manbalarining kimyoviy turlaridir. Ya'ni, rux akkumulyatorlar, batareykalar tayyorlashda juda keng qo'llanadi. Shuningdek rux plastinalaridan ko'p adadli bosma nashrlardagi illyustratsiyalarni bosishda, ya'ni poligrafiyada foydalaniladi. Elektronika payvandlash qalaylari tarkibiga ham, erish haroratini barqarorlashtirish uchun rux qo'shiladi. Aks holda, ushbu payvand o'rinlari elektr jihozlar qiziganda erib qolishi mumkin. Rux oksidi esa oq bo'yoq ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Rux – latunning eng muhim komponentidir. Ruxning alyuminiy va magniy bilan qotishmalari juda yaxshi mexanik sifatlarga ega bo'lib, ularni eritish va quyish ham nisbatan osondir. Shu sababli ruxning ushbu qotishmalaridan mashinasozlikda detallarning aniq quymalarini tayyorlashda keng foydalaniladi.

Ruxning sulfidi, telluriti, selenidi va fosfidi mikroelektronikada juda keng ishlatiladigan yarim o'tkazgichlardir. Rux sulfidi shuningdek ko'plab lyuminoforlarning tarkibiy qismi bo'ladi. Rux fosfididan kemiruvchilarga zahar sifatida ham foydalaniladi. Optik shishalarni tayyorlashda rux selenidni qo'llash orqali, linzaning o'rta infraqizil diapazondagi yutish koeffitsiyentini barqarorlashtirish mumkin.

Biologik ahamiyati. Voyaga yetgan odam organizmida taxminan 2 gramm atrofida rux moddasi mavjud bo'ladi va u asosan mushaklarda, jigarda, hamda oshqozon osti bezida bo'ladi. Organizmdagi 400 dan ortiq fermentlar tarkibida rux aniqlangan. Ular orasida peptidlar, oqsillar va murakkab efirlarni katalizlovchi, aldegidlar hosil qiluvchi, DNK va RNK polimerizatsiyasini katalizlovchi muhim fermentlar bor. Tarkibida rux mavjud bo'lgan fermentlar ichida eng chuqur o'rganilgani karboangidraza bo'lib, u o'zida 260 xil aminokislota qoldiqlari tutadi. Ushbu ferment qondagi eritrositlar tarkibida bo'ladi va karbonat angidridning organizmdan chiqarilishiga xizmat qiladi. Rux shuningdek, organizmda erkaklik gormonlari va erkak urug'ining ishlab chiqarilishida katta o'rin tutadi, E vitaminining singishiga xizmat qiladi, erkaklardagi prostata bezining me'yoriy faoliyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Rux elementi organizmdagi insulin, testosteron, kabi anabolik gormonlarning sintezida ishtirok etadi.

Oziq ovqat mahsulotlarida ham rux moddasi nisbatan ko'p miqdorda bo'ladi. Inson iste'mol qiladigan oziq moddalar ichida eng ko'p rux moddasiga ega mahsulotlar qatoriga qovoq urug'ining mag'zi, ustritsa, kunjut va kungaboqar pistasi kiradi. Bundan tashqari, go'sht, pishloq, suli yormasi, dukkaklilar, hamda shokolad tarkibida rux ko'p bo'ladi. Rux ba'zi ma'danli suvlar tarkibida ham uchraydi.

Organizmda rux yetishmasligi yuzaga kelsa, qator salbiy holatlar namoyon bo'la boshlaydi. Ular orasida, rux yetishmasligiga uchragan odamning tez asabiylashadigan bo'lib qolishi, tez charchashi, xotira susayishi, ko'z nurining


xiralashishi, insulin miqdorining pasayishi kabilar yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu esa salomatlikka jiddiy xavf tug‘dirishi va kasallanishga olib kelishi mumkin.

Organizmda rux miqdorini baholash uchun mutaxassislar soch tolasi va qon zardobidan foydalanadilar.

Ruxning organizm uchun zararli xossalari ham bor. Agar organizmga rux tuzlari, ayniqsa rux xloridi va sulfati davomli kelib tushib tursa, undagi Zn^{2+} ionlarining toksik xususiyati tufayli jiddiy zaharlanish holatini yuzaga keltirishi mumkin. Rux sulfati $ZnSO_4$ kuchli zaharlanishni keltirib chiqaradi. U oziq-ovqat mahsulotlarini ruxlangan idishlarda saqlash orqali maishiy sharoitda ham hosil bo‘lishi mumkin. $ZnSO_4$ bilan zaharlanish kamqonlik, jismoniy rivojlanishdan orqada qolish va hatto bepushtlikka ham olib kelishi mumkin.



Birikmalari. Rux ikki valentli birikmalar hosil qiladi. Zn^{2+} rangsiz bo‘lib, kislotali va ishqoriy muhitlarda eritmada mavjud bo‘la oladi. Ruxning xlorid, bromid, yodid, sulfat, nitrat va atsetat tuzlari suvda yaxshi eriydi. Sulfid, karbonat, ftorid, fosfat, peryodat, arsenat, arsenit, xromat, oksalat, silikat, sianid tuzlari suvda kam eriydi.

Ruxning ko‘p miqdordagi asosli tuzlari mavjud. Buni Verner nazariyasi bilan tushuntirish mumkin. Qattiq rux tuzlarining rentgenografik tahlilida rux ioni rux gidroksidi molekulalari bilan o‘ralganligi aniqlangan:





Shu sababli ham og‘ir metallarning oksidlari va gidroksidlari rux tuzlari eritmalarida yaxshi eriydi.


Rux va kadmiy gidroksidlari oq rangli, suvda erimaydigan cho‘kma. Ularni rux va kadmiy tuzlariga ishqor ta’sir ettirib hosil qilinadi. Kislotalarda, ishqorlarda va ammiak eritmasida yaxshi eriydi:




Simob gidroksidlarini, uning tuzlariga ishqor ta'sir ettirib hosil qilib bo'lmaydi, chunki parchalanib, oksid holida cho'kadi.




Rux, kadmiy va simob (II) ning nitratlari, sulfatlari, perxloratlari, asetatlari suvda yaxshi eriydigan moddalardir. Bu moddalarni eritmalari zaharlidir. Simob (I)-tuzlarining ko'pchiligi suvda erimaydigan moddalardir. Faqatgina suvda eriydigan va simobning boshqa tuzlarini olishda ishlatiladigan birikmasi $\text{Hg}_2(\text{NO}_3)_2$ dir.




Rux xloridning konsentrlangan eritmasi gidroliz natijasida kompleks birikma hosil qiladi:



SHuning uchun rux xlorid eritmasi metallarni payvandlashda, sirtidagi oksid pardasini tozalashda ishlatiladi:



Rux, kadmiy va simob (P) sulfidlar suvda erimaydigan moddalardir. Bu eritmalarining sulfidlarini eruvchanlik ko'paytmalari Zn-Cd-Hg - qatorida kamayib borishi bilan ularning kislotalarda erishi kamayib boradi. Masalan, rux sulfid suyultirilgan xlorid kislota, CdS esa faqat konsentrlangan HCl da, HgS esa qaynoq konsentrlangan sulfat kislota eriydi. Rux, kadmiy sulfidlaridan simob (P) sulfid ishqoriy metallarning sulfidlarida erishi bilan farq qiladi.[9-11]





I.2. Ruxning kompleks birikmalari.

Koordinatsion nazariyaning rivojlanish jarayoni bilan bir vaqtning o'zida Lyuis va Sidjvik nazariyasi, ya'ni kimyoviy bog'lanishi juft elektron hosil bo'lishi bilan tushuntirsa bo'ladi degan nazariya paydo bo'ldi. Bu nazariya koordinatsion birikmalarga ko'llanildi va koordinatsion bog'ni donor-akseptor bog' deb tushuntirib, akseptor xossani markaziy metall, donor xossani esa unda birikkan ligandlar namoyish qiladi degan nazariya yaratiladi. Bu nazariyati yaratilishiga Poling ayniksa katta hissa qo'shdi. Nazariyaga VB metodi deb nom berildi.

Van Flek, Bete va boshqa olimlar tomonidan kristall maydon nazariyasi yaratildi. Bu nazariya VB metodidan keskin farq qiladi. KMN da ligandlar nuqtaviy zaryadga yoki nuqtaviy dipolga ega degan model ko'llanadi. MO metodida esa metall-ligand orbitallari bir-birini qoplaydi degan tushuncha qo'llaniladi.

NH_4^+ ioni ammiak molekulasida bo'linmagan elektron jufti borligi tufayli hosil bo'lishi ma'lum. Uni ammiak molekulasining vodorod ioniga birikishi natijasida hosil bo'ladi deb tushuntiriladi. Ammiak molekulasning metallar bilan birikib ammiakatlar hosil qilishi ham shu tariqa boradi:



Valent bog'lar usuli bo'yicha komplekslar hosil bo'lishida ligandlarning bo'linmagan elektron juftlari qatnashgan holda donor-akseptor bog'lar vujudga keladi. Shu elektron juftlar ligand bilan markaziy ion orasida kompleks hosil qiluvchining erkin gibrid orbitallarini egallagan holda umumlashadi.

Yuqorida keltirilgan misoldagi Cu^+ va Zn^{+2} ionlari uchinchi tugallangan qavatga ega bo'lib, to'rtinchi qavatda esa ularda bo'sh s- va p-orbitallar bor. $[\text{Cu}(\text{NH}_3)_2]^+$ kompleksida ammiakning ikki elektron sp-gibrid orbitallarini egallaydi, bunday gibridlanish zarrachaning to'g'ri chiziqli bo'lishini belgilaydi. $[\text{Zn}^{2+}(\text{NH}_3)_2]^{2+}$ kompleksida esa to'rtta elektron juft sp-gibridlangan orbitalni egallaydi va bunda kompleks tetraedrik tuzilishga ega bo'ladi.

Donor-akseptor bog'lanish hosil bo'lishida komplekslarda s va p-orbitallar bilan bir qatorda d-orbitallar ham qatnashuvi mumkin. Bunda valent bog'lar nazariyasiga ko'ra gibrirlanish d- orbitallar ishtirokida boradi. Shunday qilib, komplekslar hosil bo'lishida sp, sp^2, sp^2d va sh^3d^2 -gibrirlanish hollari uchraydi. Bunda komplekslar tegishli chiziqli, tetraedrik, yassi kvadrat va oktaedrik tuzilishga ega bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan kompleks $[Zn(NH_3)_4]^{2+}$ da rux ioni ligandlar uchun (sxemada shartli ravishda nuqtalar bilan ko'rsatilgan) elektron juftlarni bitta 4s va uchta 4p orbitallar uzatadi.

Valent bog'lanish usuli kompleks birikmalarning ma'lum koordinasion sonlari hamda geometrik shakllarini tushuntirib beradi, shuningdek, komplekslarning reaksiyaga kirishish-kirishmasligini oldindan aytib berishga ham imkon beradi. Biroq valent bog'lar metodi komplekslarning optik xossalarini, ulardagi bog'lanishning barqarorligini miqdoriy jihatdan ifodalash va stereokimyo masalalarini analiz qilishda birmuncha ojizlik qiladi.

Sidjvik nazariyasi juda sodda va tushunarli bo'lib ko'rinsa ham juda ko'p komplekslarning tuzilishini to'g'ri izoh qila olmadi va uning o'rnini boshqa nazariyalar egalladi.

Kristall maydon nazariyasi (KMN). Kristall maydon nazariyasi kompleks hosil qiluvchi va ligandlar orasidagi elektrostatik ta'sir kuchlariga asoslangan. Bunda kompleks hosil qiluvchining d-orbitallarining fazoviy shakli hisobga olinadi. Ligandlar hosil qilgan elektr maydoni kuchiga qarab kompleks hosil qiluvchining d-orbitallari har xil energetik orbitalga ajraladi. Shu tufayli kompleks birikmaning fazoviy shakli ham turlicha bo'ladi. Erkin ionda markaziy atomning d-orbitallari bir xil energiyaga ega bo'ladi.

KMN fizik olimlar Bete va Van – Flek 1930 yil taklif qilgan bo'lsalarda, faqat 1951 yildan boshlab kimyoda qo'llanildi. KMN markaziy ionning d – orbitallariga ligandlar ta'sirini hisobga oladi.

Ushbu nazariya qattiq kristall moddalar xossalarini izohlashga qaratilgan. Bu nazariyaga muvofiq barcha metallar ionlari kompleks hosil qilish xususiyatiga ega bo'lib, bu oraliq elementlarda kuchliroq namoyon bo'ladi. Oraliq metallar komplekslarining magnit xossalari va rangi metallar atomlari orbitallarida d-elektronlar borligi bilan izohlanadi. Oraliq metallar komplekslaridagi kimyoviy bog'lanish modelini va bu moddalarga xos bo'lgan xossalar **kristall maydon nazariyasi** yordamida tushuntiriladi. Bu nazariya markaziy ionning d-orbitallariga ligandlar ta'sir etishini ko'rsatadi. Erkin atom yoki ionning bitta elektron qobig'iga tegishli barcha d-elektronlar energiyasi bir xil bo'lib, bu elektronlar bir energetik sathni egallaydi.

Erkin atom yoki erkin ionning d – orbitaldagi 5 ta bir–biridan energiya jihatidan hech farq qilmaydi (bunday orbitallar aynigan orbitallar deyiladi), faqat ular boshqa – boshqa tomonlarga yo'nalgan bo'ladi. Markaziy ionga ligandlar yaqinlashuvi bilan d – orbitaldagi elektronlarning energetik holatlari o'zgaradi, markaziy ionning d – elektron bulutlari bilan manfiy ligandlar orasida o'zaro elektrostatik qarshilik kuchi vujudga keladi. Bu kuch d – elektronlarning energiyasini oshiradi, ya'ni d – orbital qo'zg'aladi. Lekin kompleksda hamma ligandlar ionda birdek uzoqlikda joylashgan emas. Oktaedrik komplekslarda $d_{x^2-y^2}$ va d_{z^2} – orbitallarning bulutlari ligandlar tomon yo'nalgan bo'ladi va ligandlarga yaqinroq joylashadi; d_{xy} , d_{yz} , d_{zx} – orbitallarning bulutlari esa – ligandlararo fazoga yunalgan bo'ladi. Shu sababli, ligandlar bu orbitallarga kamroq ta'sir ko'rsatadi. Natijada d – orbitallarning bir muncha qo'zgalangan energetik ikkita yangi holatga ajralib ketadi. Yuqori energetik holatga ko'tarilgan $d_{x^2-y^2}$ va d_{z^2} –orbitallarni ega bilan past energetik holatdagi d_{xy} , d_{yz} , d_{zx} – orbitallarni t_{2g} ishoralanadi.

Shunday qilib, KMN ko'ra d – elektron bulutlari ligandlar band etgan joylarni band qilmaslikka intiladi. Oktaedrik maydondagi t_{2g} va eg orbitallarning energiyalari orasidagi ayirmani Δ (yoki $10Dq$) bilan belgilanadi.

Tetraedrik va tekis kvadratli komplekslarda aynigan orbitallarning energetik holatda parchalanishi boshqa yunalishda bo'ladi (1 – rasm).

KMN komplekslarning barqarorligini ligandlarning kristall maydon ta'sirini hisobiga asoslanib tushuntiradi. Oktaedrik komplekslarda t_{2g} – orbitalning energiyasi qo'zg'algan d – orbitallar energiyasidan $0,4\Delta$ qadar kam: eg – orbitalning energiyasi esa qo'zg'algan d – orbitallar energiyasiga qaraganda $0,6\Delta$ qadar ortiqdir. KMN muvofiq t_{2g} holatda turgan elektronlar kompleksning barqarorligini oshiradi, ya'ni har bir elektron $0,4\Delta$ qadar energiyani kamaytiradi. Buning hisobiga kompleksning barqarorlanishi d – elektronli kompleksning kristall maydon ta'sirida barqarorlanish energiyasi deb yuritiladi.

Oktaedrik komplekslarni KKM ta'sirida barqarorlanish energiyasini hisoblaganda yuqoridagi elektronlarni hamda pastda elektronlarni $0,6\Delta$ va $0,4\Delta$ ga ko'paytmasini algebraik yig'indisini hisoblash kerak. masalan, yuqoridagi elektronlar soni 2 ta va pastdagi elektronlarni soni 4 ta bo'lsa KKMTBE ($4 \cdot 0,4\Delta - 2 \cdot 0,6\Delta$) $0,2\Delta$ ga teng.

KMN ga asoslanganda 4 – koordinatsionli komplekslar tetraedr shakldan ko'ra tekis – kvadratli shaklga ega bo'lishiga ko'proq intiladi, chunki bunda KMTBE kattaroq. KMT komplekslarni magnit xossalari va ularni ionlarini ranglarini ham tushuntira oladi. Komplekslarni magnit xossalari yakka elektronlar borligi va ularni soniga bog'liq. Komplekslarning rangini elektronlar past energiyali orbitallardan yuqori energiyali orbitallarga o'tish bilan tushuntirish mumkin. Lekin KMN komplekslarda ligandlar bilan markazi ion orasida faqat elektrostatik bog'lanish borligini nazarda tutdi, kovalent bog'lanish borligini hisobga olmadi. Shu sababli ligandlar maydoni va molekulyar orbitallar nazariyasi vujudga keldi.

Metall ionining o'z atrofiga ligandlar (masalan, suv) to'plash xususiyati Lyuisning kislota-asos birikishi nazariyasi asosida tushuntiriladi. Bunda asosni, boshqacha qilib aytganda ligandni elektron juftlari donori deb qarash mumkin. Bu elektronlarni akseptor ro'lini o'ynovchi metall ionining vakant gibrid orbitali qabul qiladi. Metall ioni bilan uni o'rab turuvchi ligandlar orasidagi tortishish metall ionidagi musbat zaryad bilan liganddagi manfiy zaryadlar orasida vujudga

keladigan elektrostatik kuchlar hisobga amalga oshadi, deb faraz qilish mumkin. Ion holatdagi ligandlar (masalan, yoki) bo'lganda elektrostatik birikish metall markazidagi musbat zaryad bilan har bir liganddagi manfiy zaryad orasida qaror topadi. Ligandlar sifatida neytral molekulalar harakatda bo'lsa (masalan, suv yoki ammiak bo'lganda), bu qutbli molekulalarning bo'linmagan elektron juftlari joylashgan manfiy qismi metall markazga tomon yo'nalgan bo'ladi. Ligandlar markaziy metall bilan kuchli ravishda bog'lanadi. Lyuis asosi ro'lini bajaruvchi ligand metallning gibrid orbitaliga elektronni berib, o'zi elektron donori bo'lib xizmat qiladi. Ammo ligandlar bir-biridan qochishga ham intiladi. Shu sababli har qanday kompleksda ham ligandlarning metallga tortishuv kuchi bilan ligandlarning o'zaro tortishish kuchlari orasida muvozanat vujudga keladi. Ligandlarning metall markaz atrofida geometrik joylashuvchi metall bilan ligandlar orasida maksimal tortishuv kuchlarining vujudga kelishi ligandlar orasidagi tortishish kuchlarini minimal holatga keltiradi. Bu barqaror kompleks hosil bo'lishining asosiy sharti hisoblanadi. Bir vaqtning o'zida metall ionining tashqi elektronlari bilan ligandlardagi manfiy zaryadlar orasidagi itarilish sodir bo'ladi. Buni kristall maydon ta'siri yoki ligandlar maydoni deyiladi. natijada metall ionining d-elektronlari energiyasi ortadi. Metall ioni d-orbitallarining hammasi ligandlar maydoni ta'siriga bir xilda berilmasligi ham mumkin, albatta. d-orbitallarning shakli besh xil bo'lishi mumkinligi aniqlangan (x,u,z o'qlarida). Kristall maydon nazariyasi d-elektron bulutlari ligandlar egallagan joylarni band qilmaslikka intilishni nazarda tutadi. Markaziy ionning d- elektronlari soni ko'payganda kompleksning barqarorlanish energiyasi o'zgaradi.

Tetraedrik komplekslarda ligandlar d_{xy} , d_{yz} va d_{zx} orbitallarga eng ko'p elektrostatik qarshilik ko'rsatadi, bu erda $d_{x^2-y^2}$ va d_{z^2} orbitallar quyi energetik holatni egallaydi.

Rux gidroksidi $Zn(OH)_2$ rux tuzlarining suvli eritmalaridan ishqor ta'sirida oq amorf cho'kma holida ajratiladi. Amorf cho'kmaning kristallanishi tezligi

tuzning tabiati va eritma muhitiga bog'liq bo'ladi. Masalan, rux gidroksidi xloridlardan nitratlarga nisbatan tezroq kristallanadi. U amfoter xossaga ega bo'lib, uning asos bo'yicha dissotsilanish konstantasi $1,5 \cdot 10^{-9}$ bo'lsa, kislota sifatida $7,1 \cdot 10^{-12}$ ga teng. Rux gidroksidining cho'kishi pH=6 da boshlanib, pH=8,3 da tugaydi. pH=11 gacha ko'tarilsa cho'kma yana erib ketadi. Ishqoriy muhitda rux gidroksidi angidrokislota holatiga o'tib, eritmada gidroksisinkat ionlarini hosil qiladi. Ruxning tri-, tetra-, geksagidroksisinkatlari ma'lum: $\text{Me}[\text{Zn}(\text{OH})_3]$, $\text{Me}_2[\text{Zn}(\text{OH})_4]$, $\text{Me}_4[\text{Zn}(\text{OH})_6]$. Ko'pchilik sinkatlar qattiq holatda ham olingan masalan: $\text{Na}[\text{Zn}(\text{OH})_3]$, $\text{Na}_2[\text{Zn}(\text{OH})_4] \cdot 2\text{H}_2\text{O}$, $\text{Ba}_2[\text{Zn}(\text{OH})_6]$. Ular faqat ishqoriy muhitdagina barqarordir. Bunday tuzlarning ko'pchiligi kristallizatsiya suviga ega bo'lib, ularni oson ajratish mumkin. Biroq, sinkatlarning ko'pchiligi qizdirilsa, kristallizatsiya suvi ajralmasdan birikma rux oksidi va gidroksidga parchalanadi.

Rux xloridi ZnCl_2 rux galogenidlarining eng ko'p ishlatiladiganidir. Rux xloridi eritmalardan, rux oksididan, rux metallidan xlorid kislota ta'sir ettirib olish mumkin. Suvsiz rux xloridi oq rangli donador kukun, geksagonal – romboedrik kristall. Oson haydaladi, tez sovutilganda fosforaga o'xshash yorqin massa hosil qiladi. Suyuqlantirilgan rux xlorid elektr tokini yaxshi o'tkazadi. Juda gigroskopik modda, shuningdek suvsiz rux xloridni ham oson olish mumkin. Uning suvda erishida katta issiqlik ajralib chiqadi (15,6 kkal/mol). Suyultirilgan eritmalarda ionlarga yaxshi ajraladi. Rux xloriddagi bog'lanishning kovalent tabiati tufayli metil va etil spirtlar, atseton, dietil efir, glitserin va boshqa kislorod saqlagan erituvchilarda va dimetilformamid, piridin, anilin va boshqa azot saqlagan asos xossalari erituvchilarda yaxshi eriydi.

Rux xloridi ko'pgina kompleks tuzlar ham hosil qiladi. Ularning umumiy formulasi $\text{Me}[\text{ZnCl}_3]$ dan $\text{Me}_4[\text{ZnCl}_6]$ gacha. Ayniqsa ruxning to'rtta xlor atomi bilan koordinatsiyalangan birikmalari keng tarqalgan $\text{Me}_2[\text{ZnCl}_4]$.

Eritmalarning Raman spektrlari o'rganilganda rux xloridi konsentratsiyaga bog'liq ravishda $[\text{Zn}(\text{H}_2\text{O})_6]^{2+}$, ZnCl^+ , $[\text{ZnCl}_4(\text{H}_2\text{O})_2]^{2-}$ va $[\text{ZnCl}_3]^-$ yoki $[\text{ZnCl}_4]^{2-}$ ionlari ham mavjudligi aniqlangan.

Ko'pchilik kislota anionlari bilan aralash komplekslar hosil qilishi ham aniqlangan. Masalan: ruxning sulfat-xloridli komplekslarini potensiometrlik usulda o'rganish davomida ko'plab aralash komplekslari aniqlangan: $[\text{ZnCl}(\text{SO}_4)]^-$, $[\text{ZnCl}_2(\text{SO}_4)]^{2-}$, $[\text{ZnCl}(\text{SO}_4)_2]^{3-}$, $[\text{ZnCl}_3(\text{SO}_4)]^{3-}$, $[\text{ZnCl}_2(\text{SO}_4)_2]^{4-}$, $[\text{ZnCl}(\text{SO}_4)_3]^{5-}$.

Rux galogenidlarining konsentrlangan eritmaları kislotali muhitda quyidagicha kompleks kislotalar hosil qiladi – $\text{H}[\text{ZnX}_2(\text{OH})]$ yoki $\text{H}_2[\text{ZnX}_2(\text{OH})_2]$. Suyultirilgan suvli eritmaları esa oson gidrolizlanadi va lakmus uchun kislotali reaksiya beradi.

Rux bromidi rombik va **rux yodidi** esa kubsimon kristallardan iborat sariq moddalar. **Rux ftoridi** esa monoklinik kristallarga ega, suvda juda kam eriydigan modda. Ruxning bu galogenidlari ham rux xloridi kabi kompleks tuzlar hosil qiladi. Umumiy formulasi $\text{Me}_{n-2}[\text{ZnX}_n]$ bo'lib, n 3 dan 6 gacha ortib boradi. Ularning quyidagi komplekslari sintez qilingan va barqaror: $\text{NH}_4[\text{ZnBr}_3] \cdot \text{H}_2\text{O}$, $\text{K}[\text{ZnBr}_3] \cdot 2\text{H}_2\text{O}$, $(\text{NH}_4)_2[\text{ZnBr}_4]$, $\text{K}_2[\text{ZnJ}_4] \cdot 2\text{H}_2\text{O}$, $(\text{NH}_4)_2[\text{ZnJ}_4]$. Kompleks birikmalar hosil qilish xususiyati yodidlardan xloridlarga tomon ortib boradi, lekin rux ftoridi uchun kompleks birikmalar hosil qilish xos emas. Ruxning ftoridli komplekslari beqaror. $(\text{NH}_4)_2[\text{ZnF}_4]$ va $\text{Me}[\text{ZnF}_3]$ lar sintez qilingan.

Rux rodanid $\text{Zn}(\text{SCN})_2$ rodanid kislotasini rux karbonatga ta'sir ettirib olinadi. U suvda va spirtlarda yaxshi eriydi. Ortiqcha miqdordagi rux rodanidi bilan kompleks ion $[\text{Zn}(\text{SCN})_4]^{2-}$ hosil qiladi. Rux rodanidning dietilefirda erishidan ruxni ko'pchilik elementlardan ajratib olishda foydalaniladi.

Rux nitrat $\text{Zn}(\text{NO}_3)_2$ ning 2,4,6 va 9 molekula suv saqlagan to'rtta kristallogidрати mavjud. Ularnig eng barqarori $\text{Zn}(\text{NO}_3)_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ bo'lib suvli eritmalaridan $17,6^\circ\text{C}$ da ajratib olinadi. Rux nitrati 100 gr suvda 115gr eriydi. Ishqoriy eritmalarida $\text{Zn}(\text{NO}_3)_2 \cdot 4\text{Zn}(\text{OH})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ shaklida bo'ladi.

Rux sianid katta termik barqarorlikka ega bo'lib, rux tuzlariga kaliy sianid ta'sir ettirilganda oq cho'kma holida hosil bo'ladi. Rux sianid suv va etanolda erimaydi, lekin ishqoriy metallarning sianidlari eritmalarida oson eriydi. Bu

eritmalarida $\text{Me}_2[\text{Zn}(\text{CN})_4]$ yoki $\text{Me}[\text{Zn}(\text{CN})_3]$ tarkibli barqaror komplekslar hosil bo'ladi.

Rux tiosulfat suvda yaxshi eriydigan, lekin kam dissotsilanadigan ($4 \cdot 10^{-3}$) modda. Ortiqcha tiosulfat ionlari ta'sirida eritmada $[\text{Zn}(\text{S}_2\text{O}_3)_2]^{2-}$ ionlarini hosil qiladi.

Rux sulfiti ikki molekula suv saqlagan kristallogidratlari $\text{ZnSO}_3 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ bo'lib, suvda kam eriydi. Ortiqcha ishqoriy metallarning sulfidlari bilan $[\text{Zn}(\text{SO}_3)_2]^{2-}$ tipidagi komplekslarni hosil qiladi.

Ammiakatlari. Rux ammiak bilan kompleks birikmalar hosil qiladi. Ammiakli eritmalarini o'rganilganda unda ruxning $[\text{Zn}(\text{NH}_3)_2]\text{X}_2$ (diamminrux) va $[\text{Zn}(\text{NH}_3)_4]\text{X}_2$ (tetraamminrux) tipidagi komplekslari borligi aniqlangan. Olti molekula ammiak saqlagan komplekslar faqat quruq usulda olingan. Xloridli eritmalarida ammin guruhi oltitagacha bo'lgan quyidagicha tarkibli komplekslari $[\text{Zn}(\text{NH}_3)]\text{Cl}_2$, $[\text{Zn}(\text{NH}_3)_2]\text{Cl}_2$, $[\text{Zn}(\text{NH}_3)_4]\text{Cl}_2$, $[\text{Zn}(\text{NH}_3)_5]\text{Cl}_2$, $[\text{Zn}(\text{NH}_3)_6]\text{Cl}_2$ olingan.

Gidrazingidratlari $[\text{Zn}(\text{N}_2\text{H}_4)_3]\text{SO}_4 \cdot \text{H}_2\text{O}$ va $[\text{Zn}(\text{N}_2\text{H}_4)_2]\text{Cl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ tarkibli komplekslarni hosil qiladi. Ulardan birinchisi suvda yomon eriydi, spirtlarda erimaydi.

Rux yuqori kompleks hosil qilish xususiyatiga ega bo'lib, uning komplekslari tetraedrik – $[\text{Zn}(\text{CN})_4]^{2-}$ yoki oktaedrik – $[\text{Zn}(\text{NH}_3)_6]^{2+}$ shaklga ega. Quyidagi 1-jadvalda bir qancha komplekslarning barqarorlik konstantalari keltirilgan.

1-jadval.

Ruxning ba'zi komplekslari barqarorlik konstantalari

<i>Komleks</i>	<i>K_{barq}</i>	<i>Komleks</i>	<i>K_{barq}</i>
$[\text{ZnCl}_4]^{2-}$	1,0	$[\text{Zn}(\text{CN})_4]^{2-}$	$1.0 \cdot 10^{16}$
$[\text{ZnJ}_4]^{2-}$	$1,0 \cdot 10^{-2}$	$[\text{Zn}(\text{NH}_3)_4]^{2+}$	$3 \cdot 10^9$
$[\text{ZnBr}_4]^{2-}$	$1,0 \cdot 10^{-1}$	$[\text{Zn}(\text{OH})_4]^{2-}$	$1,4 \cdot 10^{15}$
$[\text{Zn}(\text{SCN})_4]^{2-}$	$2 \cdot 10^4$		

Ruxning asos xossaga ega organik birikmalar bilan ham ko'plab komplekslari ma'lum. Bu komplekslarni asosan ikkita katta guruhga bo'lish mumkin. Birinchi tipda organik reagent taqsimlanmagan juftlar vositasida bog'lansa, ikkinchi tipda organik modda kation bo'lib ruxning atsidokompleksli anionlari bilan bog'langan bo'ladi.


Akridin rux rodanidi bilan kislotali muhitda $(AkH)_2[Zn(SCN)_4]$ tarkibli kompleks hosil qiladi. Bu modda sariq rangli kristall cho'kma bo'lib, suvda kam eriydi. Reaksiya katta sezgirlikka ega. Kristallokopik usulda bu reaksiya yordamida 0,01 mkg Zn ham aniqlash mumkin. Bir vaqtning o'zida rux bilan Cd, Au, Co, Pd, Pt va boshqa elementlar bilan kam eriydigan komplekslar hosil qiladi.

Piramidon rux ioni bilan kislotali muhitda kam eriydigan $(PyH)_2[Zn(SCN)_4]$ tarkibli birikma hosil qiladi. Neytral muhitda birikma tarkibi va tuzilishi $ZnPy(SCN)_2$ ga o'zgaradi.


Piridin rux rodanidi bilan neytral muhitda suvda kam eriydigan oq rangli kristall cho'kma hosil qiladi. Uning tarkibi ham – $ZnPy(SCN)_2$ bo'ladi.

Difenilguanidin $ZnR(SCN)_2$ tarkibli suvda kam eriydigan kompleks hosil qiladi. Bu modda xloroformda yaxshi ekstraksiyalanadi ($K_e = 5,99$).

Rux antranilat $(C_6H_6O_2N)_2Zn$ tarkibli suvda kam eriydigan ichki kompleks birikma. pH 5,5-7,0 bo'lganda bu birikmani eritmadan to'liq ajratish mumkin.



Rux xinaldinat – oq rangli cho'kma, ichki kompleks tuz. Sulfat kislotada yaxshi eriydi. Ruxni gravimetrik aniqlashda ishlatiladi.



1 – Aminoantraxinon – 2 – karbon kislota rux bilan to'q qizil rangli suvda kam eriydigan komplekslar hosil qiladi. Xuddi shunday reaksiyalar ko'pchilik elementlar bilan ham boradi.

Kompleksonlar rux kationi bilan suvda yaxshi eriydigan birikmalar hosil qiladi. Bu birikmalarda rux va kompleksionlar 1:1 nisbatda birikadi. Kompleks hosil bo'lishi neytral va ishqoriy muhitda to'liq boradi. Bundan ruxni titrimetrik aniqlashda foydalanish mumkin. 2-jadvalda ruxning kompleksionlar bilan hosil qiladigan komplekslarining barqarorlik konstantalari keltirilgan. 2-jadval.

Ruxning kompleksionlar bilan birikmalarining barqarorlik konstantalari

<i>Nº</i>	<i>Komplekson.</i>	<i>lgK_{barq}</i>
1	Iminodiasirka kislota.	7,02
2	Nitrilitrisirka kislota	10,67
3	Etilendiamintetrasirka kislota	16,50
4	1,2 diaminosiklogeksantetrasirka kislota	18,67
5	Nitroiminodisirka kislota	1,6
6	Tiodiglikol kislota	3,0
7	Gidrazindisirka kislota	6,0

Piridinizoksozaridinlarning koordinatsion kimyoviy xossalari tadqiq etilgan. O'rganilgan sistemalardagi kompleks hosil bo'lish jarayonida ikki marotaba o'rin almashgan Piridinizoksozaridinnig koordinatsion kimyoviy xossalari tadqiq etilgan. O'rganilgan sistemalardagi kompleks hosil bo'lish jarayonida Pd(II), Pt(II), Zn(II), Cu(II), Ir(II) va 3,5-2 marotaba o'rin almashgan bo'lib ular tarkibi

o'rganilgan. Berilgan organik birikmalar sinfi ampolidentat xossalari hamda markaziy atom tabiatiga bog'liqligi mono va bidentatli (N,N va N-O) koordinatsiyalanish xususiyati aniqlandi . Olingan komplekslarni izoksilidin halqali geteroatomli kordinatsiyalangan komplekslar birinchi marta olingan. Sintez qilingan birikmalar IQ, elektron 1-M va 2M, YaMR spektroskopiya orqali xarakterlangan. 2ta organik va 7ta koordinatsion birikmalarning tuzulishi rentgenostruktura analizida aniqlangan. Tekshirilatyotgan sistemalarda kompleks hosil bolish jarayoni xar xil komplekslar hosil bolishiga olib kelishi mumkin ularda sis va trans holatlar ham aniqlangan. Sintez qilingan koordinatsion birikmalar Piridinizoksozaridin, diastomerlar aralashmalaridan ajratish uchun ishlatilgan . Turli xil tipdagi oksidli, sulfidli va poliyodidli materiallar turli xil maqsadlar asosida sintez qilingan 12 xil Zn va Cd komplekslar quyidagilardir:

$$[\text{Zn}(\text{ICH}_2\text{CONH}_2)_6] \quad [\text{ZnI}_4] \cdot \text{ICH}_2\text{CONH}_2, \quad [\text{Zn}(\text{C}_6\text{H}_5\text{CONH}_2)_2\text{I}_2],$$

$$[\text{Zn}(\text{CH}_3\text{NHCONHCH}_3)_2\text{I}_2], \quad [\text{Zn}(\text{CH}_3\text{CSNH}_2)_2\text{I}_2], \quad [\text{Zn}(\text{THPT})\text{I}_2] \quad (\text{THPT}) \quad 5\text{-}$$

atsetil-1,4-dimetil-1,2,3,4-tetragidropirimidin-2-tion, $[\text{Cd}(\text{THPT})_2\text{I}_2],$

$$[\text{Cd}(\text{CH}_3\text{CSNH}_2)_2\text{I}_2], \quad [\text{Cd}(\text{CH}_3\text{NHCONHCH}_3)_3\text{I}_2], \quad [\text{Cd}(\text{C}_6\text{H}_5\text{CONH}_2)_4\text{I}_2],$$

$$[\text{Cd}(\text{ICH}_2\text{CONH}_2)_6][\text{Cd}_2\text{I}_6], \quad [\text{Cd}(\text{HCONH}_2)_4\text{I}_2] \text{ i } [\text{Sd}_3(\text{HCONH}_2)_2\text{I}_{12}].$$

Birikmalarning tuzilishi IQ va KR spektri yordamida aniqlangan. KSA metodi bilan birinchi marta 18ta komplekslar aniqlangan ulardan 12 tasi

$$[\text{Zn}(\text{HCONH}_2)_2\text{I}_2], \quad [\text{Cd}(\text{HCONH}_2)_2\text{I}_n], \quad [\text{Zn}(\text{CH}_3\text{CONH}_2)_2\text{I}_2],$$

$$[\text{Cd}(\text{CH}_3\text{CONH}_2)_6][\text{Cd}_2\text{I}_6], \quad [\text{Zn}(\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CONH}_2)_6][\text{ZnI}_4] \quad \text{ma'lum.} \quad \text{xuddi}$$

shuningdek, 5-atsetil-1,4-dimetil-1,2,3,4-tetragidropirimidin-2-tion (THPT). birikma ham aniqlangan. O'rganilgan kompleks birikmalar 3 guruhga bo'lingan :

1. molekulyar
2. ionli
3. polimer


Zn va Cu yodidlarining amidlar va tioamidlar bilan olingan kompleks birikmalarning tarkibida boshqa galogenli va beqaror galogenli anion tutgan komplekslardan yetarli darajadagi farqi ko'rsatilgan . Molekulyar tuzulishli birikmalarda Zn atomining koordinatsion soni 4 ga Cd niki esa 4,5,6 ga tengligi ko'rsatib o'tilgan. Cu va Cd atomlarining ionli birikmalari

amid tutgan kationlar ishtirokidagi kompleks birikmalarda koordinatsion soni 6 ga anionli atsetatda komplekslarda esa $[\text{ZnI}_4]^{2-}$ yoki $[\text{Cd}_2\text{I}_6]^{2-}$, tarkibli. Bunda Zn va Cd atomining koordinatsion soni 4 ga teng. Zn atomining (KS =4) polimer komplekslarda $[\text{Zn}(\text{THPT})\text{I}_2]_n$ ligand molekulasi bilan ko'prik orqali bog'langan bo'lib O yoki S atomlari orqali koordinatsiyalangan. Cd yodidning formaldegid bilan polimer komplekslarida Cd atomlari (KS=6) I ligandlari bilan ko'prik tipida bog'langan kislorod atomining donorlik xususiyat quyidagi qatorda ortishi kuzatilgan $\text{C}_6\text{H}_5\text{CONH}_2 \approx \text{CH}_3\text{NHCONHCH}_3 < \text{HCONH}_2 < \text{I}^- < \text{NH}_2\text{CONH}_2 \approx \text{CH}_3\text{CONH}_2 < \text{CH}_3\text{CH}_2\text{CONH}_2 \approx \text{ICH}_2\text{CONH}_2$. Bunda ionli kompleks birikmalarning kationlar va anionlar aro ligandlarning bo'linishi bilan hosil bo'lishi birgalikda nomoyon bo'ladi. C atomlarning donor xususiyatli ligandlarining tioamidli ligandlar bilan donorlik kompleks hosil bo'lishi bilan amaliyotda tuzulishiga tasir qilmasligi aniqlangan. Kompleks hosil qiluvchining KS qiymati sferik faktori ko'rsatilgan hamda molekulalar aro yoki ichki molekulyar vodorod bog'lar mavjud bo'lgan trans yoki sis izomerlar hosil bo'lish jarayoni ifodalab berilgan. $[\text{Cd}(\text{FA})_2\text{I}_2]_n$. polimer birikmasining zanjirli tuzilishi suv formamid eritmasida $[\text{Cd}(\text{FA})_4\text{I}_2]$ molekulyar kompleksga o'tadi, havoda lentasimon tuzilishga ega bo'lgan $[\text{Cd}_3(\text{FA})_2\text{I}_6]_n$. kompleks hosil bo'lishi ko'rsatilgan. Zn va Cd ning atsetamid larning yod bilan hosil qilgan komplekslarining o'zaro tasiri natijasida yangi tuzulishli poliyodidlari olingan $[\text{Zn}(\text{AA})_6][\text{I}_{10}]$ i $[\text{Cd}(\text{AA})_6][\text{I}_{10}]$ ularning struktura tuzilishi rentgeno struktur va spektroskopik usullar bilan isbotlangan Zn va Cd yodidlarning benzaamidli komplekslari yod bilan o'zaro ta'sirlashganda o'zgaruvchan tarkibli rentgenoamorfli poliyodidlar hosil bo'ladi. Zn va Cu yodidlarining kompleks birikmalarining amidlar va tioamidlar bilan hosil qilgan komplekslarining olinish metodikasi ishlab chiqilgan unda GJN- 2 perftorlanish ishtirokida olib borilgan. (42-49-) ishlarda 2-(2-getaril)- indanon-1,3 va 2-(2- piridil)-3-tioindanon-1 1.3


larning preperativ sintez metodi ishlab chiqilgan bo'lib unga 2-(2- piridil)-3-tioindanon -1,3 va uning 3- monotioanal va uning 3 monotionatlini olinishning yangi usuli kiritilgan va 10 ta ligatirlangan.

